

QUL UBAYDIY: SHOH FAZILATI VA SHOIR TAFAKKURI UYG‘UNLIGI

Axbobova Roziyaxon Qahhor qizi

Farg'ona davlat universiteti

filologiya fakulteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada XV-XVI asrlarda yashagan Ubaydulloxon (Qul Ubaydiy)ning hayoti, shaxsiyati, davlat arbobi sifatida ko‘rsatgan faoliyati hamda badiiy merosi haqida ilmiy-nazariy tahlillar beriladi. Shoirning bir qator g‘azallaridan misollar keltirilib, ularning mavzu doirasi, badiiy san’atlari hamda poetik dunyoqarashi sharhlanadi. Ubaydiyning hukmdor hamda shoir sifatidagi ikki qirradi uyg‘un holda yoritiladi.

Kalit so'zlar: Qul Ubaydiy, sarkarda, shoir, g‘azal, oshiqlik, kulliyot, manzuma, so‘fiyona, yassaviyona, hikmatlar, Lison ut-tayr

To‘liq ismi Abulg‘oziy Ubaydulloh Bahodirxon ibn Mahmud Sulton ibn Shoh Budog‘ Sulton ibn Abulxayrxon bo‘lib, Qul Ubaydiy uning taxallusi. Ubaydulloxon Muhammad Shayboniyxonning jiyani bo‘lib, 1487 - yil Xorazmda Vazir shahri yaqinida tug‘ilgan. Otasining piri Ubaydulloh Xoja Ahror Vali unga o‘z ismini beradi. Yoshligi Buxoroda kechgan. U Amir Abdullo Yamaniy (Mir Arab), Xoja Muhammad Sadr kabi allomalardan tahsil olgan. Ubaydullaxonga o‘z davrining mashhur ulamolari Fazlulloh ibn Ro‘zbehon, Maxdumi A‘zam, Mavlono Muhammad Azizon, Mavlono Xoja Muhammad Sadr va boshqalar ustozlik qilgan. Ubaydiy, ilm-hunar bilan cheklanib qolmagan, u iste‘dodli sarkarda ham bo‘lgan. 1511-1512 yillarda Movarounnahrni qayta egallashida uch ming kishilik qo‘shin bilan 60 ming kishiga qarshi jang qilib g‘alabaga erishgani, SHayboniyxonning ko‘p zafarlari ham Ubaydulloxon matonati natijasi ekanligi manbalarda e‘tirof etiladi. Bu uning sarkardalik mahorati naqadar yuksak ekanligidan dalolat beradi. Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, Ubaydulloxon bu zafarga erishganda, atigi 25 yoshda bo‘ladi! Otasi Maxmud Sulton vafotidan keyin amakisi Shayboniyxon uni Buxoroga hokim etib tayinlaydi. 1533-yilda esa Ubaydulloxon poytaxtni Samarqanddan Buxoroga ko‘chirib, xonlik taxtiga o‘tiradi. 1540 - yilgacha Buxoro xonligini boshqaradi.

Ubaydiy yaxshi sarkarda, adolatli xon bo'lish bilan birga diniy ulamo sifatida ham shuhrat qozongan. U yettita qiroatda Qur'on o'qiy olga bu uning diniy ilmlarni ham chuqur o'zlashtirganini yorqin dalilidir. Ubaydullaxon yassaviya va naqshbandiya tariqatlariga e'tiqod qilib, shayx sifatida muridlar ham tarbiyalagan. Ubaydiy shaxsiyati yuksak inson sifatida gavdalanadi ko'z oldimizda. U shoh, sarkarda, shayxulislom bo'lishi bilan birga bastakor hamda yaxshigina shoir ham edi. Buncha fazilatlarni o'zida mujassam etgan inson mamlakatni adolat bilan boshqarganiga hech shubha qilmasa ham bo'ladi!

Ubaydullaxon «Ubaydiy», «Qul Ubaydiy», «Ubaydulloh» taxalluslari bilan o'zbek, fors va arab tillarida ijod qilgan. Uning uchala tildagi devonlarini o'z ichiga olgan kulliyoti keyinchalik Mir Husayn al-Husayniy tomonidan ko'chirilgan. Shuningdek, devondan diniy-tasavvufiy va axloqiy-didaktik ruhdagi «Omonatnoma», «Shavqnoma», «G'ayratnoma», «Sabrnoma» manzumalari ham o'rin olgan. Kulliyotiga arab va fors, turkiy tilidagi she'rlari hamda yassaviyona hikmatlari kiritilgan.

Ubaydiyning g'azallarida o'zgacha so'fiyona ruh mavjud. Ularda Haqqa bo'lgan muhabbat, ish, oshiqlik yo'llari tarannum etiladi. Masalan,

Oshiq ermastur kishi devona bo'lmasa,

G'am dashti ichra sokini vayron bo'lmasa.

Misralari bilan boshlanuvchi g'azalida Qul Ubaydiy haqiqiy oshiqning sifatlarini bayon etadi. Yuqoridagi misrada shoir kishi oshiq bo'lmaydi agar devona bo'lmasa, g'am dashitda yolg'iz yashovchi inson bo'lmasa deydi. Yanada teranroq nazar solsak, shoir oshiqlikni devonalik sifatida ko'rsatayotganini ko'rishimiz mumkin. Devona obrazi tasavvufda "zohiriy dunyodan uzilgan, qalban Haqqa bog'langan odam" sifatida gavdalanadi. "Vayronada yashovchi inson" obrazi — tashqi olamdan chetlashgan oshiq holini ifodalaydi. Ya'ni oshiqlik insonni boshqalarda ajratib qo'yadi. Haqiqiy oshiq bo'lish — bu devonalik, holsizlik, ovvora bo'lish demakdir. Oshiqlik odamni boshqalardan ajratib qo'yadi, uni "vayrona"da yashovchi kabi yolg'iz qiladi. Oshiqlik balosiz, devonaliksiz bo'lmaydi. G'azalda shu kabi mazmun yoritilgan.

Ubaydiyning o'z g'azallarida yorni tasvirlash mahorati ham boshqalarnikidan butkul ajralib turadi. Quyidagi bayt esa so'zimizning isboti bo'lib xizmat qiladi: Har necha ko'kdin o'tub buzdi maloyik ko'nglun,-

Ohu afg'onim ila nolai zorim sensiz.

Yorning jozibasi shu darajada kuchli-ki, farishtalarning ham pok tabiatini “buzadi” — ya’ni ularni ham hayratga solar darajada chiroyli. Oshiq esa bu go‘zallikdan mahrum holda faqat oh va fig‘on bilan yashayd kabi mazmun ifodalangan. Yana ushbu misrani quyidagicha tahlil qilish ham mumkin: oshiqning oh- firoqi, nolai zori yetti qavat osmondan o'tib farishtalarning ham ko'nglini "buzdi", hatto ularning ham oshiqqa rahmi keldi.

Ubaydullaxon yassaviyona hikmatlar ham muallifi sanaladi. Uning hikmatlarida ham Ahmad Yassaviynikida bo'lgani kabi, uning ham hikmatlarining bosh g'oyasi haqiqiy oshiqning hech ikkilanmay jondan kechishidir. Shu o'rinda yuqoridagi g'oya Alisher Navoiy asarlarida ham mavjud bo'lib, xususan, "Lison ut-tayr" irfoniy dostonidagi ikkinchi vodiya atroflicha to'xtalib o'tilgan.

Ey do'stlar jondin kechib ishq etokin tuttum mano,Vahdat mayin ichkuncha ne xunoblar yuttum mano.

CHun oshiq o'ldum anga chin ko'ngul ila ey do'st,Kechib yo'lda boshdin, ham tarki jon qilurmen.

Yuqorda keltirilgan hikmatlari Ubaydiyning "Devoni hikmat" ruhida va uslubida ham ijod etganini bildiradi.

Kim qochmasa jazodin, ham toymasa balodin,Rozi bo'lsa Xudodin, oshiqi sodiq bo'lur.Ishqning yuksak darajasi visol shiddatidan paydo bo'lgan shavq holidir. Buning uchun hayrat maqomini egallash zarur. Hayrat maqomining kaliti esa Haq tajalliysining tafakkuri erur. Hayrat maqomi, hayrat iboralari ham so'fiylar orasida mashhur bo'lib, "Lison ut - tayr" da unga atalgan alohida vodiy mavjud. Beshinchi vodiy Hayrat bobida bo'lib, unda hayrat, hayrat maqomi haqida atroflicha ma'lumotlar berilgan.

Ubaydullaxon mohir ruboiynavis bo'lib, uning forsiy tildagi ruboiylari soni 850 dan ortiqni tashkil qiladi. U shoh va shoir Boburdan keyin eng ko'p ruboiy yozgan ijodkor hisoblanadi. Uning ruboiylarining mavzusi ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta'limiy, irfoniytasavvufiy ko'rinishni tashkil etadi.

Ko'rguz manga ul sho'x vafosin, yo Rab! Ko'rguzma aning manga jafosin, yo Rab!
Yo Rab, ne duo qilurmen – o'z lutfung ila, Bu qulnung ijobat et duosin, yo Rab!

Yuqoridagi ruboiyda Ubaydiy mutasavvuf shoirlar ijodida juda kam uchraydigan majoziy va haqiqiy ishqni yagona mazmun doirasida badiiy talqin qilgan. Ya'ni majoziy ishq timsoli bo'lgan yor jafosidan haqiqiy ishq timsoli bo'lmish Haqdan panoh so'ramoqda. Yuqoridagi ruboiyda nido san'atidan am foydalanilgan bo'lib "Yo Rab" deya haqiqiy yaratuvchiga murojaat qilmoqda.

Xulosa: Qul Ubaydiy o'zbek mumtoz adabiyoti tarixida hukmdor-shoir sifatida alohida o'rin tutadi. Uning shaxsiyati, davlat boshqaruvidagi adolati va ijodiy merosi o'zaro uyg'unlikda namoyon bo'ladi. Ubaydiy g'azallari nozik lirizmi, falsafiy mazmuni va tasavvufiy yo'nalishi bilan yuksak badiiy qiymatga ega. Shoirning merosi bugungi adabiyotshunoslik uchun ham qimmatli manbadir. Ubaydullaxonning shaxsiyati o'rnak qilib ko'rsatishga arzigulik darajada yuksakdir. Bizda Shayboniylarga nisbatan biroz g'arazlik mavjud. Bunga qisman "Yulduzli tunlar" asarini mutolaa qilganimiz ham sabab bo'lgandir, balki. Lekin tarixga xolis ko'z bilan qaralsa, har bir voqe, har bir insonda hurmat qilishga, e'zozlashga arzigulik bir xislat bor. Qul Ubaydiy ana shunday insonlardan biri!

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.A. Хайитметов. ВАФО ҚИЛСАНГ. - Тошкент. Ёзувчи, 1994
- 2.Abdug'afurov, A. XVI asr o'zbek adabiy muhiti. – Toshkent: Ma'naviyat, 2011.
3. Abdullayev, B. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent: Fan, 2005.
- 4.Muhammad Abdullaev."Ubaydiy hayoti va adabiy faoliyati" mavzuida fan nomzodligi dissertatsiyasini, 2000

5."Muhabbat taronalari" ruboiylar to'plami, 2005